



“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini  
mexanizatsiyalash muhandislari instituti”  
Milliy tadqiqot universiteti



FAN:

“MASHINA TRAKTOR AGREGATLARI  
ISH UNUMINI BOSHQARISH”

MAVZU  
**16**

«Mashina traktor agregatlarining ish  
unumini oshirishning tashkiliy-  
texnologik rezervlari»



IGAMBERDIYEV ASQAR KIMSANOVICH  
texnika fanlari doktori, professor



Mashinalardan foydalanish va  
ta'mirlash kafedrasи mudiri



## Reja:

### Tashkiliy-texnologik rezervlar:

1. Optimal texnologik kompleksni tanlash va qo'llash
2. Jarayonning optimal parametrlarini tanlash va qo'llash
3. Ish kunining ratsional rejimlari va vaqtdan foydalanish
4. Jarayonga optimal texnologik xizmat ko'rsatish
5. Agregat harakatining ratsional usullsmini qo'llash
6. Mashina-traktor agregiatlarining optimal rejimini qo'llash.

# Мавзу бўйича билим савиясини баҳолаш

## Тушунчалар

*Таянч иборалар:*

*agrotexnik talablar; agregatni tuzish va ishga tayyorlash; dalani operasiyani bajarishga tayyorlash; aggregatning dalada yoki zagonda (raykalda) ishlatalish; ish sifatini nazorat qilish va baholash; xavfsizlik choralarini yong'inning oldini olish choralar; ekologik xavfsizlik.*

## Назорат саволлари

- 1) Mashina traktor aggregatlarining ish unumini oshirish rezervlariga nimalar kiradi?.

**Биламан**

(дарс бошида ёзилади)

**Билишни хоҳлайман**

(дарс бошида ёзилади)

**Билиб олдим**

(дарс охирида ёзилади)

# **Mashina-traktor agregatlarining ish unuminu oshirisning**

## **Tashkiliy-mexnologik rezervlari**

*Optimal texnologik kompleksni tanlash va qo'llash*

*Ish kunining ratsional rejimlari va vaqtdan foydalanish*

*Agregat harakatining ratsional usullsrini qo'llash*

*Jarayonning optimal pfrfmetrlarini tanlash va qo'llash*

*Jarayonga optimal texnologik xizmat ko'rsatish*

*Mashina-traktor agregatlarining optimal rejimini qo'llash*

## MASHINA TRAKTOR AGREGATLARINING ISH UNUMINI OSHIRISHNING TASHKILIY-TEXNOLOGIK REZERVLARI

**Mashina traktor agregatlarining ish unumini oshirishning tashkiliy-texnologik rezervlarini mexanizasiyalashtirilgan ishlarning operasion texnologik xarita ta'minlaydi.**

**Mexanizasiyalashgan ishlarning operasion texnologiyasi operasiyalarni bajarish usullari, qoidalari vositalari va ketma ketligi to'g'risidagi ma'lumotlar jamlanmasi (yig'indisi) hisoblanadi.**

# **Mexanizasiyalashtirilgan ishlarning operasion texnologik xaritasi tashkil etuvchilari**

**Operasion texnologiya quyidagi tashkil etuvchilarini o'z ichiga  
oladi:**

- agrotexnik talablar;**
- agregatni tuzish va ishga tayyorlash;**
- dalani operasiyani bajarishga tayyorlash;**
- aggregatning dalada yoki zagonda (raykalda) ishlatish;**
- ish sifatini nazorat qilish va baholash;**
- xavfsizlik choralari va yong'inning oldini olish choralari;**
- ekologik xavfsizlik.**

## Agrotexnik talablar

Har bir mexanizasiyalashgan ishning ishlab chiqarish texnologiyasi uni amalga oshirish jarayonida ma'lum agrotexnik talablarga bo'ysunadi.

Agrotexnik talablar har bir dalada bajariladigan operasiyaning (mexanizasiyalashtirilgan ishning) texnologik me'yorlarga va ulardan ruxsat etilgan ma'lum chetlashishlar shaklida belgilanadi.

Bunda eng kam mehnat va mablag' sarflagan holda yuqori sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlarini maksimal miqdorda olish, tuproq unumdorligini oshirish hal qiluvchi omil bo'lishi kerak.

Oddiy operasion texnologiyada agrotexnik talablar quyidagi asosiy ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

- ishning shartlari va davomiyligi;
- qishloq xo'jaligi ishlari sifatini tavsiflovchi texnologik ko'rsatkichlar;
- materiallar (urug'lik, o'g'itlar, yoqilg'i va boshqalar) sarfini va me'yoriy yo'qotishlarini (donni to'kilib yo'qotilishi, pichan va boshqalarning yo'qotilishi yoki nobud bo'lishi) aniqlovchi ko'rsatkichlar;
- MTA harakat tezligining ruxsat etilgan diapazoni.



## Agregatni tuzish va ishga tayyorlash.

Qishloq xo'jaligi ishlari uchun to'g'ri tuzilgan va sozlangan mashina-traktor agregati bir qator asosiy talablarga javob berishi kerak:

- a) ishlarni yuqori sifatda bajarish;
- b) traktor va ish mashinalarining texnik imkoniyatlaridan to'liq foydalanishni, eng kam mehnat, pul, yoqilg'i va boshqa materiallarni sarflagan holda eng yuqori mahsuldorlikni ta'minlash;
- c) yuqori manevr qobiliyatini (chaqqonlik, haydash barqarorligi, boshqariluvchanlik va manevr) ta'minlash;
- d) estetik, sanitariya-fiziologik va xavfsiz mehnat sharoitlariga rioya qilish, texnik xizmat ko'rsatish qulayligini ta'minlash;
- e) ekologik xavfsizlik.

## Traktor va ishchi mashinalarni tanlash.

Traktor ma'lum operasiyani bajarish maqsadida texnik xususiyatlari, tortish va ilashish sifatlari, tuproq va iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda tanlanishi kerak.

Asosiy ishlar uchun eng kuchli zanjirli va g'ildirakli traktorlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Qator oralariga ishlov beradigan, tuproqqa yuza ishlov beradigan va kichik konturli maydonlar uchun o'rta va kichik kuchli traktorlardan foydalanish tavsiya etiladi.

## **Qishloq xo'jaligi mashinalarini tayyorlash.**

Ish mashinalarni (qishloq xo'jaligi mashinalarini) tanlashda, ma'lum bir operasiyani bajarish uchun texnologik jarayon va agrotexnik talablarga javob berishdan tashqari, ularning ishlashi uchun bir qator tuproq va tabiiy sharoitlarni (tuproq qarshiligi, uning mexanik tarkibi, namlik, toshlik va boshqalar) inobatga olinishi kerak bo'ladi. Ushbu talablar mashinalarning sifat tarkibini (turini) va ruxsat etilgan tezlik diapazonini oldindan belgilaydi. Yuqori unumdorlikdagi mashinalar odatda yuqori unumdorlikni ta'minlaydigan katta maydonlarda qo'llanilishi kerak.

Transport ishlariga talablar transport vositalarining sifat tarkibini (turini) va ruxsat etilgan tezlik diapazonini oldindan belgilaydi.

## MTA tarkibi va tezligini asoslash

**Agregatning tarkibi traktorning tortish xususiyatlari va agregatning ishchi qismining (qishloq xo'jaligi mashinalari, tirkamalar) qarshiligidagi bog'liq. Bunday holda, agregatning asosiy maqbul energetik mezoni uning tortish kuchidan foydalanish koeffisientini maqbul bo'lishini ta'minlashi kerak.**

т/р	Операциялар (иш турлари)	Ҳаракат тезлиги, км/соат
1	Оддий корпусли плуглар билан ерни шудгорлашда	7-8
2	Тезкор корпусли плуглар билан ерни шудгорлашда	8-12
3	Тиркама сеялка билан донли экинлар экишда	8-9
4	Осма сеялка билан дон уруғларини экишда	9-10
5	Чигит сеялкаси билан экишда	6-8
6	"Зиг-Заг" тирмалар билаш тирмалашда (бороналашда)	5-8
7	Қатор ораларига ишлов беришда: - биринчи ишлов беришда - навбатдаги ишловларни беришда	4-6 8-9
8	Пахта теришда	4-5
9	Фалла экинлари ҳосилини ўриб-йиғиб олишда	6-7

## Dala maydonini ishga tayyorlash

Mashina-traktor aggregatining dalada (ish maydonida) ishlashiga dala ishga tayyorlangandan keyingina ruxsat etiladi. Ular birinchi navbatda kirish yo'llarini ko'zdan kechiradilar va kerak bo'lгanda ularni normal holatga keltiradilar. Keyin ular dalani to'siqlar, somon qoldiqlari va aggregatning ishlashiga xalaqit beradigan boshqa begona narsalardan tozalab, tekshiradilar. Olib bo'lmaydigan to'siqlar qoziqlar bilan belgilanadi yoki o'rab olinadi. Agar maydon murakkab konfigurasiyaga ega bo'lsa, undan oddiyroq shakldagi (ko'pincha to'rtburchaklar) ishchi maydonni ajratish va alohida ishlov berish tavsiya etiladi. Shundan so'ng, ish uchastkasining uzunligi va kengligi aniqlanadi, burilish kengligi, aggregatning tarkibi va texnologik jarayonning xususiyatlarini hisobga olgan holda aggregatning harakatlanish yo'nalishi va usuli tanlanadi. Bunda ish mashinalarini harakatlantirishning mumkin bo'lgan usullaridan eng yuqori mahsuldorlikni va ish sifatini ta'minlaydiganlaridan biri tanlanadi.

## Adabiyotlar:

1. Игамбердиев А.К., Алиқұлов С. Тракторлар ва қишлоқ хұжалик машиналаридан фойдаланиш, техник сервис. Тошкент, ТИҚХММИ, 2020.-286 б.
2. Игамбердиев А., Алиқұлов С. Машиналарнинг техник самарадорлиги. Тошкент, ТИҚХММИ МТУ., 2021.-100-б.
3. Иофинов С.А., Лышко Г.П. Машина-трактор паркидан фойдаланиш. М.: Колос. 1984
4. Наумов Ю.И. Машина-трактор паркидан фойдаланиш. Т. Мехнат. 1986
5. Иофинов С.А., Бабенко Э.П., Зуев Ю.А. Машина-трактор паркидан фойдаланишга оид справочник. Т.: Мехнат, 1986.



**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini  
mexanizatsiyalash muhandislari instituti”  
Milliy tadqiqot universiteti**



# E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!



IGAMBERDIEV ASQAR  
KIMSANOVICH



Mashinalardan foydalanish va  
ta’mirlash kafedrasi mudiri



+ 998 71 237 05 86



[asqar1959@mail.ru](mailto:asqar1959@mail.ru)



asqar59 +99894 641 24 98